

MILLIY URF-ODATLAR VA AN'ANALAR ASOSIDA O'SMIRLARNING MA'NAVIY-AXLOQIY KAMOLATI

Isayeva Madinabonu Malikovna

Buxoro Xalqaro Universiteti Psixologiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'smirlarning ma'naviy-axloqiy kamolotini shakllanishda milliy urf-odatlar va an'analarning o'rni yoritilgan. Maqolada xalqimizning ko'p asrlik qadriyatlari — kattalarga hurmat, kichiklarga mehr, mehmondo'stlik, insonparvarlik kabi jihatlar yosh avlod tarbiyasiga qanday ta'sir ko'rsatishi haqida fikr yuritiladi. Milliy bayramlar, oilaviy marosimlar va urf-odatlar orqali yoshlarda vatanparvarlik, halollik, odob-axloq kabi fazilatlarni shakllantirishning ahamiyati asoslab berilgan. Bundan tashqari bu qadriyatlarning o'smirlarga ta'siri, ularning yanada rivojlanishi uchun zamin yaratishi to'liq yoritib boriladi. Globallashuv davrida o'zlikni yo'qotmaslik, milliy qadriyatlarga tayangan holda yoshlarni barkamol etib tarbiyalash zarurligi ta'kidlangan. Ushbu maqola tarbiya jarayonida ota-ona, maktab va jamiyatning mas'uliyatiga urg'u berib, yoshlarning to'g'ri shakllanishida milliy merosning beqiyos rolini ochib beradi.

Kalit so'zlar: milliy urf-odatlar, qadriyatlar, insonparvarlik, odob-axloq, globallashuv, milliy meros

Kirish qismi: har bir davlatning asosiy maqsadi yosh avlodni har tomonlama yetuk, shijoatli, ilmi shu bilan bir qatorda manaviy va axloqiy kamolotini rivojlantirish demakdir. Hozirgi kunda Respublikamizda milliy qadriyatlarni o'rganish dolzarb masalalardan biriga aylandi. Sababi boy milliy qadriyatlarimiz tarixini o'rganmay turib, ularning bugungi holatini tahlil qilish va kelajagi haqida fikr yuritish qiyindir. Kishining qurshab turgan cheksiz ko'p narsa va hodisalar, shu jumladan, milliy ma'naviyat ichidan ham, muayyan shaxs yoki ijtimoiy guruh, yoki konkret millat, yohud butun insoniyat uchun alohida ahamiyatga, qadrga ega bo'lganlari qadriyat deyiladi. Milliy qadriyat deb, muayyan xalqning rasm-rusumi, an'anasi, fazilatlari, axloq va odobi, yashash tarzi, bayramlari, shu xalqning aksariyat qismi tomonidan e'zozlanishga loyiq bo'lgan inshootlar, milliy kiyimlar, uy-ro'zg'or buyumlari, ro'zg'or tutishlari aytiladi. Masalan, O'zbeklarning mehnatsevarligi, mehmondo'stligi xushxulqligi va muloyimligi, g'ayratli va itoatgo'yiligi, turli toifadagi odamlar bilan o'zaro inoqlashib ketishligi, kechirimliligi, mulohaza va tafakkur bilan ish ko'rishi, tinchliksevarligi o'zbek milliy qadriyatlari bo'lib hisoblanadi.

Ma'naviy qadriyatlar – kishilar ma'naviy faoliyati mahsuli, bilishning murakkab jarayoni natijasida yuzaga kelgan bilim, qarash va malakalar samarasidir. Bu qadriyatlarni tariflash, oqibat natijada, insonning ruhiy ehtiyojlari, manfaatlari va faoliyat turlariga bog'liq. Ma'naviylik bunday hollarda moddiylikka qarama-qarshi qo'yilmaydi. Aksincha, ular o'zaro bog'liqdirlar. Bularga misol qilib, turli-tuman bayramlar, milliy urf-odat va an'analar, chiroyli axloq va odoblar, musiqa, mo'yqalam ustasi ijodining mahsuli bo'lgan rasmlar, badiiy adabiyot va hokazolarni keltirsa bo'ladi.

Moddiy qadriyatlar deb, kishilar moddiy ehtiyojlarini qondirib, o'ziga xos xususiyati va shakllariga ko'ra odamlarda alohida his-tuyg'u uyg'otuvchi moddiy narsalarga aytiladi. Ularga buyuk inshootlar, bog` va hiyobonlar, antiqa uy ro'zg'or buyumlari, tarixiy buyumlar va shunga o'xshash narsalar kiradi. Ma'naviyat – kishilarning egallagan bilimlari va bu bilimlarning hayot tarziga aylanganlik darajasi; qadriyat - ma'lum bir shaxs yoki kishilar guruhida alohida ahamiyatga ega bo'lgan ma'naviyat turi; madaniyat - inson olgan bilimlarini hayotda qo'llayotganida boshqalarni zavqlantira olish holati; san'at-avvallari bo'lib o'tgan madaniyat turlaridan birini, shu kunda, sun'iy ravishda tiklab, odamlarda zavq uyg'otuvchi faoliyat turi bo'lsa, madaniy va ma'naviy meros ajdodlar avlodlarga qoldirgan ma'naviyat hamda madaniyat ichidan millatning shu kuniga asqotib turgan qismiga aytiladi. Ota-bobolarimizning ummonday ma'naviy va madaniy xazinasidan bizga faqat bir qismigina yetib kelgan. Ularning ko'plari tarix sahifalarida qolib ketgan sababi, ular o'z vaqtida xizmatini bajarib bo'lib, bugungi kunimizga yaramay qolgan ular faqat ma'naviy va madaniy yodgorlik sifatida xotirlanadi. Misol uchun, millatimizning ko'rki bo'lgan paranji (yopinchiq) o'z davrida zo'r qadriyat bo'lgan. Ba'zilar paranji yopinishni madaniyat darajasiga ham olib chiqqanlar. Ammo, bu bizga meros bo'lib qolmadi. U millatimizning ma'naviy yodgorligi. Turli marosim va urf-odatlarimiz milliy asosga ega bo'lib, milliy madaniyatni tashkil etuvchi bo'laklardan biridir. Yoshlarni faollashtirishda milliy-ma'naviy merosdan foydalanish, ularni o'quvchilar ongiga singdirish, vatanimiz taraqqiyoti va istiqboliga zid bo'lgan yot qarashlar ta'siridan saqlash bilan jamiyatda insoniy fazilatlarni yanada kamol toptirishga xizmat qilishiga ishona olsak bo'ladi. Yosh avlodni ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamol inson qilib tarbiyalash bugungi mustaqillikni mustahkamlash, rivojlantirish va takomillashtirish uchun zaruriy vazifadir. Bu borada O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A. Karimovning quyidagi fikrlari ibratlidir: "... unib, o'sib kelayotgan yangi avlodning har tomonlama barkamol, irodasi baquvvat, iymoni butun bo'lib voyaga yetishi uchun keng jamoatchilik va aholimiz o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy faoliyatimizni yuksak darajaga ko'tarishning ahamiyati beqiyosdir"

Malumki o'smirlilik davri inson hayotining eng asosiy va muhim bosqichlaridan hisoblanadi. Ushbu davrda insonning jamiyatga qo'shilishi, axloqiy qarashlari, uning dunyoqarashi, ijtimoiy xulq atvori shakllanadi. Shuning bilan birga insonning manaviyati shakllanishi, ya'ni qadriyatlar butun hayot davomida inson shaxsiyatining asosini tashkil etadi. Shu nuqtai nazardan, xalqimizning boy tarixiy merosi — milliy urf-odat va an'analar yoshlarga ma'naviy-axloqiy tarbiya berishda bebaho manba hisoblanadi. Azal azaldan olim-u, faylasuflarimiz o'smirlarning tarbiyasida qadriyatlari-mizni ahamiyati katta ekanligiga alohida e'tibor berishgan. Shu jumladan mashhur jadid ma'rifatchisi Abdulla Avloniy bu haqida "Milliy qadriyatlarini unutgan xalq – ildizidan uzilgan daraxt kabidir" kabi purmano fikrlarni yuritganlar. Haqiqatdan ham xalqning ma'naviy-axloqiy asoslari, avvalo, uning qadimiy urf-odatlar va an'analarida mujassamdir. Avloddan avlodga qolib kelayotgan bu urf-odatlar hayot tajribalaridan o'tib yanada boyib kelmoqda. Ayniqsa, yosh avlod, xususan o'smirlar uchun bu qadriyatlar ruhiy kamolot va barkamol shaxs shakllanishining mustahkam poydevoridir. Shuning bilan birga Yurtboshimizning madaniy-ma'naviy boyliklarimizga berayotgan e'tiborlari beqiyos. Jumladan Prezident Shavkat

Mirziyoyevning “Yoshlar qalbiga milliy g‘urur va vatanparvarlik tuyg‘usini singdirishda ajdodlarimiz merosiga tayanish – eng to‘g‘ri yo‘ldir” deb bildirgan fikrlari ayniqsa o‘smirlarda faxrlansa arzigulik madaniy merosi borligini, shuning bilan birga bizga yetishib chiqqan allomalardan o‘rnak olgan holda buyuk kelajak qurishga davat etuvchi yo‘lni ko‘rsatgan. Ushbu fikrlar asosida aytish mumkinki, bugungi globallashuv sharoitida o‘smirlarni milliy ruhda tarbiyalash, ularning axloqiy va ma‘naviy kamolotini ta‘minlash dolzarb masalaga aylanmoqda.

Ushbu maqolada o‘smirlarning ma‘naviy shakllanishida milliy qadriyatlarning tutgan o‘rni, ularni yoshlar ongiga singdirishning yo‘llari hamda bu jarayonning ahamiyati tahlil qilinadi.

Asosiy qism: Malumki Oila kichik vatan hisoblanadi. Aynan shuning uchun qadriyatlarning ildizi shu oiladan ajdodlardan qolgan manaviy meroslar orqali shakllanadi. Ma‘lumki oilada ajdodlar o‘z avlodining yaxshi ham manan yetuk, ham ilmiy salohiyati yuqori bo‘lishi uchun bor tajribasi va ota-bobolardan qolgan tarbiya usullari bilan bolalar ongidan joy olib ularni tabiyalaydi. Bola psixikasi shundayki u eshitganini emaq ko‘rganini qiladi. Qadriyatlar esa yillar davomida shu oila tomonidan qadrlanib amal qilib kelinayotgan urf-odatlar hisoblanadi. Aynan shu qadriyatlar haqida Abdurauf Fitrat ham “Oila yoki oila boshqarish tartiblari” asarida jamiyat va urf-odatlarining insonga ta’siri haqida quyidagi mulohazalarni yuritgan :

“Jamiyatning ma‘naviy qiyofasi oilalarning qandayligiga bog‘liqligi azaliy haqiqat. Chunki, oila jamiyatning ijtimoiy-ma‘naviy bo‘g‘ini, kichik vakili bo‘lib, aynan oila zaminida xaqqimizning bugungi kuni va kelajagi bunyod etiladi. Agar oilada tartib-intizom bo‘lsa, uning a‘zolari shu xislatlarini xizmat jarayoniga ko‘chiradi va ijtimoiy mehnat faoliyatiga qo‘llaydilar. Bu esa, ularning o‘z xizmat vazifalarini yuksak darajada bajarishlariga sabab bo‘ladi. Oila bu odobu axloq, xushmuomalalik, mehnatsevarlik asosida qurilgan bo‘lishi insonlar o‘rtasidagi munosabat va muloqotlarda o‘ta muhim va shaxsning fe‘l-atvor, yurish-turushida alohida ahamiyat kasb etadi. Agar oila o‘z farzandini vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalasa, bu his-tuyg‘u unga butun hayoti davomida hamroh bo‘ladi.

O‘smirlarni tarbiyalash va xalqning etnik tomonlarini, shuning bilan birga milliy-urf odatlarini aks etgan asarlar yaratishgan jumladan Said Ahmadning “Qorako‘z Majnun” asarida ham kuzatishimiz mumkin. Asardagi “Qorako‘z Majnun” parchasiga e‘tibor qarataylik. Asarning boshlanish qismida Saodat ayaning namoz o‘qish jarayoni bilan boshlanadi. Bu ham musulmonlarga xos bo‘lgan odat hisoblanadi. Asar davomida Saodat aya shunday jumlani keltiradi: “Otang chiqqan uyni tashlab ketolmayman, men ham shu uydan chiqazilaman”. Bu jumladan anglash qiyin emaski, otaga bo‘lgan hurmat, e‘tibor yaqqol ko‘zga tashlanadi. Azalda otaga hurmat bolaning yoshlik vaqtlaridan unga uqtirilgan. “Kampir hajga ketayotganlarga pensiyadan yig‘gan pullarini “Hoji badal” uchun berib yuborgan edi. Bu ham bir urf-odatning bizga tanish bo‘lgan ko‘rinishi sanaladi. Yana bir urf-odatlarini sanab o‘tadigan bo‘lsam, mehmon kelganda uning oyog‘i ostiga qo‘u so‘yish, mehmonni ketish payti sovg‘a-salomlar bilan jo‘natish, bolasi uchun Yassaviya maqbarasining shayxiga ataganlarini berib, kokilini kestirish, qo‘y so‘yib, xudoyi qilish, er yigitlarning armiya xizmatiga borishi, farzandga ism qo‘yilish jarayoni. O‘zbek xalqida biron bir tabiat hodisa ro‘y berayotgan vaqtda tug‘ilgan bolalarga ham alohida ism qo‘yish

tutumi bo'lgan. Masalan, agar bola shamol yoki bo'ron bo'layotganda tug'lsa, unga Shamolboy, Bo'ron, Bo'ronali, Bo'ronberdi, Bo'ronchi, Bo'rongul ismlari qo'yilgan. Dovul bo'layotganda tug'ilgan bola Dovulboy ismi berilgan Ma'lumki, quyosh charaqlab turgan paytda yomg'ir yog'sa, "bo'ri bolalayapti" deb tushunilgan. Ota-bobolarimizning esa shunday ob-havoli kunda tug'ilgan bolaga Bo'riboy, Bo'rixon kabi ismlarni berish odati bo'lgan. Said Ahmad o'zining "Qorako'z Majnun" hikoyasida xalqimizning ana shu odatini esga olgan Bo'rixonga bunday ism qo'yilishining o'ziga yarasha sabablari bor. Misol tariqasida ushbu parchani sizga havola etaman: "Saodat aya shu bolasiga to'lg'oq tutayotganda oftob charaqlab turardi-yu, yomg'ir sharros quyayotgan edi. Derazadan hovliga qarab turgan doya xotin: Bo'ri bolalayapti, degandi. Shuning uchun ham u o'g'liga Bo'rixon deb ism qo'ygandi. Tarixdan ma'lumki, ism qo'yish jarayonining ham alohida bir o'zining o'zni bo'lgan. Nuroniy ota- bobolarimizning ta'kidlashlaricha: "Bolaga qo'yilgan ism uning kelajagiga ham ta'sir ko'rsatmay qolmaydi". Inson o'z umri tugaganligini sezganda vasiyat qilib qolishga harakat qiladi. Bu ham urf-odatning bir turi hisoblanadi. Urf-odatlar xalq bilan tirik, u bilan barhayot yashaydi va taraqqiy etib boradi. Ushbu odatlar insonlar lisonida boyib boradi. Qadriyatlar xalqning etnogenezida muhim rol o'ynaydi. Ma'naviy faoliyatga kishilarning xarakteri, tafakkur tarzi, ruhiyati, intilishlari, qiliqlari, yumor xususiyatlari va boshqalarni kiritishimiz mumkin. Moddiy hayot esa urf-odat, rasm-rusm, marosimlar, kiyimlar, uy-ro'zg'or anjomlari, cholg'u asboblari, pazzandachilik, ismlar va boshqalardir. Badiiy asarlarda aks etgan ana shu milliy xususiyatlar yig'indisi adabiyotshunoslikda milliy kalorit deb ataladi. "Milliy xos so'zlarga milliy taomlar, kiyim-kechaklar, cholg'u asboblari, ro'zg'or anjomlari, nomlar, taxalluslar, laqablar, qishloq xususiyatlari, me'morchilik, geografik nomlar, tabiat manzaralari, daraja, unvon, tabaqa va boshqa bo'linishlarni ifodalovchi so'zlar, muassasalar, tashkilotlar, diniy marosimlar va boshqa etnografik belgilarni bildiruvchi so'z va iboralar kiradi".

Aynan shuning uchun urf odatlarimiz haqida qisqacha ma'lumotlar bersam;

№ An'analar Urf-odatlar Milliy an'analar, urf-odatlarni maktablarda qo'llash

1 Beshik to'yi Suyunchi olish Qariyalardan xabar olish

2 Sunnat to'yi Beshik belash Mahallani obodonlashtirish

3 Muchal to'yi Oqlik kiygizish, kelin salom, yor-yor, lapar aytish Namunali oila

bilan uchrashuv

4 Nikoh to'yi Uloq, dorboz, kurash, sust xotin, sumalak, halim tayyorlash va hokazolar Otalar maslahati

5 Payg'ambar to'yi Mahalla tarixini bilasizmi

6 Navro'z Navro'z

7 Xosil bayrami Namunali qizlar

8 Gul bayrami Mushoira

9 Xayitlar Muchal to'yi

10 Milliy o'yinlar va h/k Mahalla pahlavoni

Mana shundek ajoyib urf-odatlarimiz bor. Bundan tashqari bazi kirtilmagan qoidalaram borki u tarbiyamizni yanada rivojlanishiga yordam beradi. Bu hyerdagi har bir urf odat o'ziga xos ahamiyatga ega. Bu urf odatlardan barchasi ahillikka asoslanganini anglagan holda shuni tushundimki bu urf odatlar insonning o'z ustiga kishlashiga doimiy

ravishda turtki bo'ladi. Meni etiborimni jalb qilgan milliy urf-odatlardan Namunali qiz va Mahalla pahlavoni bo'ldi. Chunki bu tanlovlar o'smirlarga o'zgacha bir g'urur bag'ishlashi shubhasiz. Bunday qadriyatlar yosh avlodning namunali shakllanishiga yordam beradi.

Hozigi kunda o'smirlarning manaviy kamolotini shakllantirishda quyidagi amaliy tavsiyalar maqsadga muvofiqdir.

Oilaviy tarbiyada milliy an'analarni jonlantirish.

Har bir oila o'z qadriyatlariga sodiq bo'lishi, bolalarga kattalarga hurmat, kichiklarga mehr, mehmondo'stlik, musofirni izzat qilish kabi an'anaviy axloqiy qadriyatlarni amaliy tarzda o'rgatishi lozim.

Har haftada bir kun yoki aniq sanalarni birga nishonlash maqsadga muvofiq. Chunki aynan o'sha kunlarda oila a'zolari tomondan mehr tuyg'usi shakllanadi, ishonch kuchayadi, bir-biroviga dalada berish, qo'llab-quvvatlash, yorqin xotiralarni eslash shuning bilan birga madaniy meroslarimiz haqida fikr almashishga imkoniyatlar tug'iladi. Bundan tashqari "Oila kuni" tashkil etish tavsiya etiladi (masalan, birgalikda do'ppi tikish, palov pishirish, milliy ertak aytish va h.k.) oilada madaniy muhit yanada yaxshilanshiga, milliy-urf odatlarning yosh avlodga singib yanada fikr almashishga sabab bo'ladi.

Milliy urf-odatlarni o'rgatishda teatr va sahna san'atidan foydalanish

O'quvchilar ishtirokida an'anaviy marosimlar sahnalashtirilgan chiqishlar (beshik to'yi, kelin salom, chaqaloq ko'rdi, Navro'z marosimi va h.k.) uyushtirish.

Har oyda "Milliy qadriyat haftaligi" doirasida sahna ko'rinishlari, adabiy kechalar, dramalar tashkil etish.

Mahalla, jamoatchilik va ota-onalar hamkorligini mustahkamlash

Mahalla oqsoqollari, nuroniylar, ziyolilar ishtirokida o'smirlarga mo'jaz suhbatlar, uchrashuvlar uyushtirish. Ushbu uchrashuvlarda nuroniylarning hayot tajribalari, milliy qadriyatlarining ular hayotida tutgan o'rni va hayot yo'lida olgan saboqlarini yangi avlod bilan bo'lishsalar maqsadga muvofiq bo'lardi.

Ota-onalar bilan ma'naviy tarbiya bo'yicha seminar-treninglar tashkil qilish ya'ni "Milliylik – oila tarbiyasining asosi" mavzusida ota-onalarimizning farzand tarbiyasida milliylikni ruhini singdirish usullari va metodlarini o'zlashtirishlari uchun seminar treninglar tashkil etish maqsadga muvofiq.

Xulosa: Milliy manaviyatimiz va madaniyatimizning tarkibiy qismi bo'lgan urf-odat, an'analimiz bugungi kunda keng tarzda rivojlanmoqda. Xalqimizning tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan va turmush tarzining tarkibiy qismiga aylanib ketgan milliy urf-odat an'analimiz kichiklarning kattalarga salom beishi, mehmondo'stlik, betob, ojiz, qiynalganlarga yordam berish, yetimlarning haqini emaslik va boshqa insoniy fazilatlar va urf-odatlar har bir xalqda o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. O'z xalqining urf-odat an'analarni bilish va hurmat qilish zarurdir. Chunki milliy urf-odat va an'analarni hurmat o'z millatiga hurmatning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Yoshlarimizni har tomonlama yetuk insonlar qilib shakllantirish va rivojlantirishda milliy urf-odat an'analarning o'rni beqiyos. Har bir yosh avlodni, avvalambor oilada, so'ngra ta'lim-tarbiyaning keyingi bosqichlarida milliy urftarbiyalash keng yo'lga qo'yildi. Ularda milliy urf-odat an'analalarimizga hurmat tuyg'usini shakllantirish va rivojlantirish tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Shuni aytish kerakki, millat, xalq bor ekan, uning manaviy dunyosida milliy jihatlar doim saqlanib qoladi.

Xalqimizning milliy manaviyati, erkak va ayollarning o'ziga xos sharqona axloqiy fazilatlari, ota-ona, farzandlar, qo'ni-qo'shnilar, mahalla-ko'y aloqalari, halollik, iymon, vijdon bilan bog'liq, manaviyati faqat o'tmish sadosi emas, balki hozirgi kun uchun ham xosdir. Kattalarga, ota-onalarga hurmat, kamtarlik, xalollik, iymon, mehnatsevarlik, mehmondo'stlik singari milliy-manaviy fazilatlarimiz hamisha barqaror.

Chunki bu manaviy xislatlar avloddan-avlodga tib qon-qonimizga singib ketgan. Millat bor ekan, uning manaviyati saqlanib qoladi va rivojlanaveradi.

Bugungi kunda yoshlarimizda kelajakka intilish bilan bo'liq bo'lgan tashabbus, kuch va g'ayrat kun sayin rivojlanmoqda.

Bu esa o'z navbatida yoshlarimizda sog'lom manaviy dunyoqarashni shakllanishi va rivojlanishiga zamin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Sh.M.Mirziyoev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qatiyat bilan davom ettirib,yangi bosqichga ko'taramiz.T. zbekiston.2017-y.530-b.
2. Oila va urf-odatlar (R. S. Bahromov, O'zbekiston, 2008)Gazeta.
3. Said Ahmad. Qorako'z Majnun Toshkent-2001
4. A.Fitrat. "Oila yoki oilani boshqarish tartiblari" asari. Toshkent Manaviyat-2000